

O'RTA OSIYO HUDUDIDA UCHRAYDIGAN DORIVOR,EFIR MOYLI,VITAMINLI
VA OZIQ-OVQAT BO'LADIGAN O'SIMLIKLAR

Davronova Sevinch Sobit qizi

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani SamDU akademik litsey o'quvchisi

Annatsiya: SHifobaxsh dori sifatida ishlatiladigan o'simliklar, Efir moyli o'simliklarning xalq xo'jaligida ishlatilishi, provitaminlar, karotin, vitamin B, B1, B12, Floramizdagi oziq-ovqat o'simliklari,

Kalit so'zlar: Kardiovalen, kislotalar, vitaminlar, parfumeriya sanoati, pelagra, vitaminli o'simliklar, jag'-jag' va yong'oq.

Shifobaxsh dori sifatida ishlatiladigan o'simliklar Inson va hayvonlar organizimida yuz beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotgan preparatlar salmoqli o'rin tutadi. O'simliklar dori-darmonlar ishlab, chiqarishda asosiy xomashyo manbai hisoblanadi. Ayni vaqtda tibbiyotda ishlatiladigan 900 dan ortiq dori-darmonlarning katta qismi dorivor o'simliklarning mahsulidir. Yurak kasalliklarini davolashda foydalaniladigan dorilarning 77%, jigar va oshqozon-ichak yo'llarida uchraydigan kasalliklarni davolaydigan dorilarning 74%, bachadon kasalligiga qarshi ishlatiladigan preparatlarning 80% shifobaxsh o'simliklardan foydalaniladi. O'rta Osiyo o'simliklar olamida, dorivor o'simliklarning 413 turi xalq kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Dorivor o'simliklardan tayyorlanadigan dori-darmonlar organizimiga ta'sir etish xarakteriga qarab, tinchlantiradigan, uxlatadigan, og'riq qoldiradigan, qon ketishini to'xtatadigan, karaxt qiladigan, qo'zg'atadigan darmonsizlantiradigan, quvvatlantiradigan, qayd qildiradigan, yaralarini bitiradigan va antibiotik singari guruhlariga bo'linadi. Dorivor o'simliklardagi shifobaxsh moddalarning tarkibi: alkaloid, glyukozid, fumakumarin, oshlovchi va saponinli moddalar, efir moylari, yog'lar, kislotalar, mineral tuzlar, vitaminlar va turli birikmalardan tashkil topgan. Dorivor o'simliklarning shifobaxsh bo'lishi ularning tarkibidagi kimyoviy moddalarning turli-tumanligiga bog'liq. Hozirgi kunda shifobaxsh o'simliklarning 50 turi madaniylashtirilgan holda ekiladi. Yurak kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan sifatli dorilardan biri kardiovalen bo'lib, u do'lana asarun (valeriana), sariqgul (adonis) bir qancha o'simlik turlaridan tayyorlanadigan murakkab birikmalardir. Dorivor o'simliklarga qo'shijida, qirqbo'g'im, oqqaldirmoq, shirchoy, qoraandir, bozul-barg, sebarga va boshqalar kiradi.

Efir moyli o'simliklarning xalq xo'jaligida ishlatilishi

O'zbekistonda efir moyli o'simliklarning 560 turi ma'lum bo'lib, ular 233 turkumga va 50 oilaga kiradi. Efir moylari o'simliklarni turli xil kasalliklardan va zararkunandalarning ta'siridan saqlab qoladi. Efir moylari o'simliklar va zaxira modda sifatida ularning yashil qisimlaridan hosil bo'ladi. Efir moylari murakkab birikmalardan tashkil topgan bo'lib, ularning tarkibiy qismlari har xil. Efir moylaridan parfumeriya sanoatida atirupalar, tish pastalari va kukunlari, pomadalar hamda sovunlar ishlab chiqarishda keng

foydalaniladi. Farmasevtikada ba'zi bir efir moylari hamda ularning aralashmalaridan mentol, timol, anetol va boshqalaridan davolashda, antiseptik xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli turli xil (tish og'rig'I, teri kasalliklari, sochlarga ishlov beradigan) dorilar tayyorlashda foydalaniladi. Efir moylari uchuvchanlik va bakterisidlik dizenfeksiya qilishda foydalaniladi. Bundan tashqari efir moylari oziq-ovqat sanoatida konfetlar, har xil bulochkalar, spirtli va spirtsiz ichimliklar, vino, likyorlar tayyorlashda keng qo'llaniladi. Ko'pchilik efir moyli o'simliklar atirgullar, gulsafsarlar, rayhonlar, piyozgullar, o'z navbatida manzaraga boy lavanda, koriandr, marmaraklar esa guli asalshiraga eng boy o'simliklardandir. Xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari uchun xomashyo hisoblanuvchi, respublikamizda yovvoyi holda o'suvchi efir moyli o'simliklarning qizilarcha, avrug, yovvoyi chinnigul, oqshair, suvyalpiz, dastarbosh, ermon, marmarak, o'lmas-o't qo'ng'irzira va boshqalar kiradi.

Vitaminlar haqida

Vitaminlar organizimda moddalar almashinuvini boshqarib turishda, shuningdek, iste'mol qilingan ovqatlarni oson va tez hazm bo'lishida hamda organizimga yaxshi singdirishda muhim rol o'ynaydi. Barcha tirik organizimlarning, balki kishilar hayotida ham vitaminlarning o'zni katta ahamiyatni kasb etadi. Vitaminlar organizimni turli yuqumli kasalliklardan saqlashda, yara va jarohatlarni tez bitishida, organizm tez toliqishi oldini olishda, jismoniy jihatdan shishishida, mashqdan so'ng kuchni qaytadan tez tiklashda va shunga o'xshash qator hollarda yaxshi yordam beradi. Inson organizimida vitaminlar yetishmasligi natijasida turli kasalliklar, ya'ni singa, pellagra, beriberi, soya ivimaslik, shapko'r, raxit va boshqa xastsliklar sodir bo'ladiki, ularni bir nom bilan "Avitaminoz" kasalligi deyish mumkin.

Vitamin turlari

Vitamin A (provitamin karotin) yosh organizim o'sishini ta'minlash bilan bir qatorda, uni turli kasalliklardan ham himoya qiladi. Ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi. Terining tashqi taassurotga chidamliligini oshiradi.

Vitaminlardan B, B1, B12 va nerv sistemalari ishini normallashtirishda, yurak, jigar faoliyatini yaxshilashda, ko'rish hamda oshqozon-ichakning funksiyasining tartibga solishda katta ahamiyatga ega.

Vitamin C organizimda yetishmasa, karbon suvlarning parchalanishi va hazm bo'lishi yomonlashadi, singa kasali rivojlanadi.

Vitamin D (provitaminlar-strinlar) kalsiy va fosforli tuzlar almashinuvida katta ahamiyatga ega. U bolalarni raxit kasalligidan saqlaydi.

Vitamin K qonni quyuqlashishi hamda ivishiga yordam beradi.

Vitamin P mayda qon tomirlari devorlarini mustahkamlaydi.

Floramizdagi oziq-ovqat o'simliklari

Inson va hayvonlarning yashashi hamda hayot kechirishida o'simliklar asosiy rol o'ynaydi. Chunki ular oziq-ovqat, yem-xashak, dori-darmon, kiyim-kechak, havo (kislород) hamda juda ko'pchilik moddalarning tabiiy manbalari hisoblanadi. Oziq-ovqat bo'ladigan o'simliklarni xomligicha hamda har xil toamlar tayyorlab iste'mol qilinadi. Hozirgi kunda respublikamiz florasida uchraydigan 4137 turi o'simliklardan

faqat 300 turi oziq-ovqat va ziravor o'simliklar sifatida ishlatiladi.Ulardan yovvoyi holda uchraydigan yong'oq,olma,olcha,muhim ahamiyatga ega.

Jag'-jag' o'simligi

Jag'-jag' karamdoshlar oilasiga mansub o'simlik bo'lib,bahorda cho'llarda,tog' etaklarida uchraydi.Bo'yi 10-30 sm keladigan bir yillik o't.Barglari qisqa bandli,patsimon qirqilgan,poyalari bandsiz,gullari poyada shingilli to'pgul bo'lib joylashgan.Jag'-jag' mart oyidan boshlab mayning oxirigacha gullaydi.Jag'-jag' tarkibida K va C doridarmonlari,olmava limon kislotalari bor.Jag'-jag'ning yerustki qismidan tayyorlangan dorilar tabobatda qon ketishini to'xtatishda ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.6-sinf o'quvchilari uchun darslik"BOTANIKA"
- 2.R.N.Babayeva"BOTANIKA"
- 3.I.V.Belolipov"O'zbekiston o'simliklar dunyosi"
- 4.Q.X.Haydarov,K.X.Hojimatov"O'zbekiston o'simliklari"
- 5.M.Mustaqimov"O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya asoslari".